26.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**
G.Sh. Rixsiyeva
2020 yil “28” 08

**“KELISHILDI”**
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2020 yil “28” 08

Ro‘yxatga olindi: № BD-5120100
2020 yil “28” 08

# O‘RGANILAYOTGAN MAMLAKAT TARIXI (INDONEZIYA)

## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Gumanitar soha |
| **Ta’lim sohasi:** | 120000 – Gumanitar fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishlari:** | 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari)<br>5120200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari) |

**Toshkent - 2020**

| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar |
|---|---|---|---|
| IMT229 | 2020-2021 | 2-3 | 4-5 |
| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** |
| Majburiy | O‘zbek | | 4-4 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **O‘rganilayotgan mamlakat tarixi (Indoneziya)** | 120 | 150 | 270 |

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga O‘rganilayotgan mamlakat tarixi (Indoneziya tarixi) fanining nazariy va amaliy asoslari, Indoneziya tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi hududida indoneziyaliklarning paydo bo‘lishi va ushbu mintaqada turkiy davlatlar tashkil etilishidan boshlab muhim tarixiy davrni yoritishga oid bir qator masalalarni, Indoneziya hududidagi etno-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, moddiy madaniyat xususiyatlarini o‘rgatish hamda ularda xolisona ilmiy dunyoqarashni, ko‘nikma va malaka hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – indonez xalqi tarixining kelib chiqishini aniqlash va davlat hududida etnosning paydo bo‘lish bosqichlarini (miloddan avvalgi I ming yillik – milodiy VII asr) kuzatish; mamlakat tarixining Islom dini kirib kelishi davri (X – XIII asrlar), Majapahit sultonligi (XIII – XVI asr boshi), mustamlakachilik (XVI – XX) va Indoneziya Respublikasi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar, Yava orolida jamiyatning evolyutsion xususiyatlarini ochib berish; barcha indonez davlatlarining xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarini ko‘rib chiqish; talabalarda Indoneziya tarixiga yagona jarayon sifatida qarashlarini shakllantirish, etno-konfessiyaviy institutlarning, shuningdek, ularning etnik-madaniy xususiyatlarini chuqur bilish asosida xorijiy Osiyo, bu holda o’rganilayotgan mamlakat xalqi tarixiy rivojlanishini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish, Malakka sultonligi va Indoneziya respublikasining tarixiy retrospektiv va zamonaviy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi o‘rnini aniqlash kabi masalalarni ochib berish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**MODUL I. (Qadimgi va o‘rta asrlar)**

**1-mavzu. O‘rganilayotgan mamlakat tarixi (Indoneziya tarixi) faniga kirish**

Fanning maqsadi va vazifalari, o‘tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish, Indoneziya tarixini davrlashtirish masalalari, Indoneziya tarixi tarixshunosligi, Indoneziyaning tarixiy rivojlanishidagi umumiy va o‘ziga xos muammolari, Hozirgi Indoneziya Respublikasining umumiy xususiyatlari, turli davrlardagi Indoneziyaning geografik chegaralari, Indoneziyaning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi.

**2-mavzu. Indoneziya hududidagi qadimgi xalqlar (mil. av. I ming yillik - XI asr)**

Dastlabki ko‘chmanchi qabilalar va ularning Yevrosiyo etnik tarixidagi o‘rni. Qadimgi turklar: etnik tarixining kelib chiqishi va asosiy bosqichlari. Ko‘chmanchilikning paydo bo‘lishi antik davrning iqtisodiy tarixidagi yangi bosqichdir. Xalqlarning buyuk ko‘chishlari. Yava oroli va Okeaniyada malay-indonez tillarining tarqalishi. Miloddan avvalgi I-ming yillik oxirida Malakka yarimorolida ko‘chmanchi qabilalarning paydo bo’lishi. Qadimgi malakkaliklar haqidagi Xitoy va yunon manbalari. “Malay” etnonimining kelib chiqishi. Qadimgi indonez xalqlarining shakllanishi va uning etnik tarixining asosiy bosqichlari. Malay-indonez qabilalari yashagan hududlar va ilk feodal Sityao, Gein, Gantoli kabi davlatlarning tashkil topishi.

**3-mavzu. Indoneziya hududiga islom dinining kirib kelishi. Samundra davlati tashqi aloqalari.**

Janubi-Sharqiy Osiyo hududiga islomning kirib kelishi. Xalifa Usmon (r.a., 644-656) davridan boshlab arablarning Yava va Malakka hududlariga kirib kelishni boshlashi. Musulmonlarning Sumatra orolining VII asr oxirida paydo bo’lgan savdo-tijorat gullab-yashnagan yirik buddaviylik davlati Srivijaya davlati bilan aloqalardagi o’rni. XIII asrda Sumatra orolidagi yana bir boshqa davlat Samudraning Xitoy bilan diplomatik aloqalarida musulmon savdogarlarining o’rni. Venetsiyallik sayyoh Marko Polo hamda arab sayyohi ibn Battuta ekspeditsiyalari davrida Sumatra oroli. Mintaqadagi qabrtoshlarda islom dininufuzining aks etishi. Islom dinining bu hududda tarqalishiga oid mahalliy va xorijiy manbalar tahlili.

**4-mavzu. Mustamlaka tizimi o’rnatilgunigacha bo’lgan davrda Yava oroli va Malakka yarimorolidagi davlatlar (1300 – 1500-yillar).**

Majapahit, Demak va Malakka davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Davlat tashkilotlarining xususiyatlari. Mintaqada mavjud bo’lgan o’zaro savdo-iqtisodiy hamda siyosiy-harbiy aloqalari. Mintaqa davlatlarning o’zaro savdo-iqtisodiy hamda siyosiy-harbiy aloqalari. Mintaqa davlatlari jamiyatlarining madaniy va diniy hayoti. O‘zaro urushlarning tugashi va markazlashgan Majapahit davlatining tashkil topishi. Xitoyning Min imperiyasi bilan aloqalar.

**5-mavzu. Yevropaliklarning Indoneziyaga kirib kelishi (1509-1620).**



**Qo‘shimcha adabiyotlar**


1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016.- 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 488 б.
3. Melvin, Jess. The Army and the Indonesian Genocide: Mechanics of Mass Murder. 2018.
4. Vickers, Adrian. A History of Modern Indonesia. Cambridge University Press. 2005.
5. Bellwood, Peter, The Austronesians: Historical and Comparative Perspectives. 2006. /ISBN 0 731521 32 3/.
6. Durand, Frédéric, Francoise Cayrac-Blanchard, Stéphane Dovert. Indonésie - Un demi-siècle de construction nationale. L'Harmattan, 2000


**Axborot manbalari**

1. https://www.history.ru
2. https://www.infoplease.com
3. https://www.jstor.org
4. https://www.academia.edu

**7.** Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil “29” 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “29” 08 dagi 452 - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

**8. Fan/modul uchun mas’ullar:**

U.A.Abdullayev - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi mudiri

Z.M. Qodirov - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

**9. Taqrizchilar:**

I.M. Shamsiyeva - TDSHU, “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

D.J. Urakov – O‘zMU “Jahon tarixi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent

| | |
|---|---|
| | izlash, Indoneziya tarixini, uning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil tavsiflash, jahon tarixiy jarayoni kontekstida Indoneziyaning tarixiy-huquqiy va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida Indoneziya tarixini tahlil qilish, Indoneziyadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning tarixiy xilma-xilligini hisobga olgan holda siyosiy madaniyat va mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, Indoneziyaning tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida islom omili va uning turli xil ko'rinishlarini hisobga olgan holda tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, Indoneziya tarixi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va manbalardan, shuningdek ularda mavjud bo'lgan atamalardan foydalanish, Indoneziya tarixining asosiy parametrlari va tendensiyalarini yoritish va tahlil qilish, Indoneziya tarixining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish va amaliyotda qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi*** **kerak.** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari**<br><br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. M.C.Ricklefs. A History of Modern Indonesia since c.1200. Third Edition. Houndmills, Basingstoke, Hampshire. Palgrave, 2001.<br>2. Викерс, Адриан. История современной Индонезии. Издательство Кембриджского университета. 2005.<br>3. Brown, Colin. A Short History of Indonesia. Crows Nest, New South Wales: Allen & Unwin. 2003.<br>4. Виттон, Патрик. Индонезия. Мельбурн: Одинокая планета. 2003.<br>5. Дрейкли, Стивен. История Индонезии. 2005, e-book.<br>6. Festschrift E. Маклаевский, В. Ревуненковой и А.К. Оглоблину. Индонезийцы и их соседи. сборник. Вып. 1. Спб., 2008 |



XVI asrdan boshlab yevropaliklarning mintaqa hududiga ko'plab kirib kelishi. Portugaliya va gollandiya savdogarlari. Yevropaga ziravor savdosi monopoliyasi uchun kurash. 1497-yilda Vasko da Gama ekspeditsiyasining Indoneziya uchun natijalari. Sulton Mahmud Syah davri (1488-1528). Malakka sultonligining Portugaliya nazorati ostiga o'tishi. Fransis Xaviyer boshchiligidagi missionerlarning Sharqiy Indoneziyadagi faoliyati: xristianlikdagi katolik oqimining tarqalishi. VOC [*Vereenigde Oost-Indische Compagnie*] – Birlashgan Sharqiy Hindiston kompaniyasining tuzilishi va uning Indoneziyadagi mustamlakachilik tuzumini mustahkamlash va ushlab turishdagi ahamiyati hamda faoliyati. Indoneziyada inglizlarning faollashuvi – Frensis Dreyk.

**6-mavzu. Indoneziyada yangi davlatlarning paydo bo'lish davri (1500-1650).**

Malakka sultonligining Portugaliya tomonidan zabt etilishi. Kolonistik tuzumga qarshi kurash. Aseh davlati bilan bo'lgan urushlar. Sulton Iskandar Muda (1607-1636) davrida Aseh davlatining qisqa muddatga harbiy jihatdan kuchayishi va inqirozi. G'arbiy Yavada Banten, Markaziy Yavada Mataram, hamda Sharqiy Yavada Surabaya davlatlarining vujudga kelishi. Demak sultonligining regiondagi mavqei. Demak sultoni Sunan Gunungjatining portugallarning istilochilik harakatiga qarshi faoliyati. Islom faktori. XVI asrning ikkinchi yarmida hozirgi Surakarta va Yogyakarta hududlarida Pajang va Mataram qirolliklarining paydo bo'lishi. Surabaya qirolligi. Sulton Krapyakning o'g'li sulton Agung hukmronligi davrida (1613-1646) Mataram qirolligi. 1641-yilda uning Sulton Abdulloh Muhammad Mavlono Mataroniy unvonini Makkadan qabul qilib olishi.

**7-mavzu. Indoneziyada savodxonlik, din va madaniy meros.**

Mintaqa hududida turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar tomonidan yaratilgan rangbarang madaniy markazlar va moddiy meros. *'Sejarah Melayu'* – "Mayal tarixi" asarida keltirilgan madaniy standartlar. Hamza Pansuri va Syamsuddin Pasaining ijodiy ishlari: "Sharab al-ashiqiyn", "Asrar al-arifiyn", "Nur ad-daqa'iq". Indoneziya arxipelagida madaniy rivojlanish jarayonida Islom faktori: "*Hikayat Iskandar Dhulkarnain*", "*Hikayat Amir Hamzah*". Hind sivilizatsiyasi va buddaviylik dini ta'siri: "Hikayat Sri Rama", "Hikayat Pandawa Jaya". *Wayang kulit*. Sultonliklarning tarixiy xronikalarining tuzib borilishi. Indoneziya xalqlari tilida mustamlakachi davlatlarning ta'siri. Xorijiy tarixshunoslikda malay-indonez xalqlarining shakllanishi muammolari.

**8-mavzu. Gegemonlik uchun kurash. Sharqiy Indoneziya (1630-1800).**

XVII asrdan e'tiboran gollandlar dengiz savdosida ustunlik qila boshladilar. 1641-yilda Portugaliya Malakkasi to'liq VOC qo'liga o'tdi. Niderland mustamlakalarida general-gubernatorlik tashkil etildi. Ziravor

yetishtirishga moslashtirilgan hududlarning ko'payishi. Hituese Muslim Kakiali rahbarligida VOC boshqaruviga qarshi qaratilgan uyushma tuzildi. 1650-yilda qirol Mandar Syahga qarshi davlat to'ntarishi. Sultonlik va qirolliklar o'rtasidagi o'zaro hudud va savdoda ustunlik uchun kurashlar. Mintaqa hududida ispan-portugallar, gollandlar hamda inglizlar o'rtasida raqobatning kuchayishi. VOC o'z oldiga Maluku va Yava orolini to'liq egallash maqsadini qo'ygan. Majahit davlatida Islom omili. Bali davlati.

**9-mavzu. G'arbiy Indoneziya (1640-1800).**

Arxipelagning g'arbida sharqdagiga qaraganda biroz boshqacharoq vaziyat shakllangan. Sharqiy Indoneziyadan farqli ravishda bu hududda iqtisod nisbatan rivojlangan bo'lib, xalqaro bozor bilan progressiv rivojlanish bosqichiga ertaroq o'tgan. 1642-yildagi VOC va Palembang o'rtasidagi shartnoma. Mustamlakachilar va mahalli aholi o'rtasidagi to'qnashuvlar. Palembang sultoni Andul Rahman hukmronligi davri (1662-1706): iqtisod va madaniyat rivojlandi. Sulton Astra Ingala (1719-1725 va 1727-1743) o'zining opiyga o'rganib qolgani bilan mashhur bo'lgan. Jambi hududi 1768-yildan XIX asrgacha qaroqchilar makoni bo'lib qoldi. Bugis qirolligi. 1784-yilda Niderlandiya J.P. van Braam qo'mondonligida Indoneziyaga qo'shin yubordi.

**10-mavzu. Indoneziyadagi davlatlardan biri Yavadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat (1640-1682).**

Mataram va Banten davlatlari. Sulton Susuhunan Amangkurat (1646-1677) davrida Mataram imperiyasiga asos solindi. Sulton mamlakatni iqtisodi, siyosiy va harbiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan islohotlar o'tkazgan, ammo yetarli bazaviy asos bo'lmaganligi sababli, ularning hammasi muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Butun XVII asr davomida Mataram davlati hudud jihatdan torayib bordi, jumladan, butun Kalimantan to'liq mustaqillikka chiqib oldi. 1676-yilda valiaxd shahzodaning harbiy isyoni sodir bo'ldi. Malakka sultonligi Johor Malaylari tomonidan doimiy siquvga olib kelingan. 1677-yil fevralda VOC va Amangkurat II o'rtasida kelishuv shartnomasi imzolandi. Bantanliklar inglizlar, daniyaliklar va xitoyliklar yordamida Eron, Hindiston, Siam, Vetnam, Xitoy, Filippin va Yaponiya bilan savdo qilgan. Sulton Ageng mamlakatda dehqonchilikni rivolantirishga e'tibor qaratdi. Agrar va yer islohoti o'tkazdi. Naqshbandiya, Qodiriya va Shattariya tariqatlarining yoyilishi. Shayx Yusuf Makasar (1626-1699).

**11-mavzu. Indonez davlatlari: Yava, Madura hamda VOC munosabatlari (1680-1745).**

VOC va soliq tizimidagi muammolar. 1682-yilda VOC askarlarining mahalliy yavalik ayollarga tajovuzi, shuningdek, ham yevropalik, ham indoneziyalik askarlarning opiy qabul qilishi haqida ma'lumotlar ma'lum bo'ldi. 1684-yilda VOC qo'shinlariga Banten qirolligi askarlari tomonidan hujum uyushtirildi va uning natijasida 39 nafardan 20 nafar yevropalik askarlar



26. Indoneziya Pespublikasida ko'ppartiyaviylik tizimi va uning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri.
27. Indoneziya Respublikasida sud-huquq tizimi.
28. Indoneziya shaharlari va turizm salohiyati.
29. Indoneziya Respublikasida ommaviy axborot vositalari.
30. Turk milliy bayramlari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Indoneziya tarixi) fanining maqsad va vazifalari, indonez tarixining asosiy bosqichlari, Indoneziyaning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi mazmuni, insoniyat madaniyati tarixi kontekstida turkiy xalqlarning san'ati, madaniyati va urf-odatlari, Indoneziya tarixiga oid asosiy manbalarning umumiy mazmuni, XI-asrdan to hozirgi kungacha bo'lgan Indoneziyaning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, Indoneziya tarixining turli bosqichlarida uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillarning asosiy mazmuni, Indoneziyada tarixan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari, Indoneziya tub aholisining siyosiy madaniyati xususiyatlari va ularning mentaliteti, Indoneziyada ijtimoiy va siyosiy institutlarning shakllanishi va faoliyatiga islomning ta'siri darajasi, Indoneziya tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlari, Indoneziya tarixi bilan bog'liq bo'lgan muhim atamalarning ma'nosi, tarixning muhim ijtimoiy-siyosiy voqeliklarining tarixiy kelib chiqishi va konteksti hamda ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi;**
- talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, Indoneziya tarixining asosiy bosqichlari va huquqiy mazmunini tahlil qilish, mustaqil ravishda Indoneziya tarixi bo'yicha adabiyot va manbalar bilan ishlash, Indoneziyaning tarixiy rivojlanishining har bir bosqichidagi asosiy rivojlanish tendentsiyalarini tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda turk siyosiy madaniyatining xususiyatlarini tushuntirish, Indoneziyadagi ijtimoiy-siyosiy institutlarga islom omilining ta'sir o'tkazishi va uning darajasini tahlil qilish va aniqlash, Indoneziya tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlarini oqilona tahlil qilish, ko'rsatilgan atamalardan, shu jumladan ilmiy munozaralarda foydalanish, tarixiy va madaniy voqeliklarni tahlil qilish, Indoneziya tarixiga oid manbalarni mustaqil tadqiq qilish va o'rganish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***
- Indoneziya va boshqa mamlakatlarning tarixiy jarayonini tahlil qilish, mustaqil ishlash, Indoneziya tarixiga oid masalalar bo'yicha ma'lumot

12. Indoneziyada "yangi tartib"ning o'rnatilishi (1965-1988).
13. Indoneziyada "yangi tartib"ning muammolari, inqirozi va barham topishi (1989-1998).
14. Suharto boshqaruvi tugatilgandan keyingi Indoneziya
15. Eng yangi davrda Indoneziya

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Indoneziya tarixiga oid adabiyotlar tahlili.
2. Janubi-Sharqiy Osiyo hududidagi qadimgi davlatlar (Yava, Maduro va bq.).
3. Indoneziya mayda-mayda orol-davlatlar hukmronlik davrida.
4. G'arb ekspansiyasigacha bo'lgan davrda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.
5. Portugaliya va Gollandiya kirib kelgan davrda mintadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol.
6. Indoneziya va uning qo'shni hududlar bilan munosabatlari.
7. Indoneziyaning mustamlakaga aylanishi va uning tarixiy ahamiyati.
8. Sulton Mehmed II tomonidan Konstantinopolning bosib olinishi va uning tarixiy ahamiyati.
9. Indoneziyaning Hindixitoydagi mamlakatni birlashtirishga qaratilgan yurishlari.
10. Indoneziyaning tashqi diplomatik munosabatlari.
11. Indoneziyaning davlat boshqaruv tizimi.
12. Indoneziyada sud-huquq tizimi.
13. Indoneziyada yer egaligi tizimi.
14. Indoneziyada ta'lim tizimi.
15. Indoneziyada harbiy boshqaruv tizimi.
16. Indoneziyada VOC faoliyati.
17. Indoneziyada islohotchilik harakatlari.
18. Indoneziyada milliy o'zlikni anglash va yagona Indoneziya g'oyasi.
19. Indoneziyaning G'arb davlatlari mustamlakasiga aylanishi.
20. Indoneziya mafkuraviy hayotida dinlarning, jumladan islomning o'rni.
21. Xristian missionerlarining kirib kelishi va ularning faoliyati.
22. Sukarno va uning siyosiy faoliyati.
23. Suharto va uning siyosiy faoliyati.
24. Indoneziya Respublikasida ta'lim tizimi
25. Indoneziya Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida harbiylar omili.



o'ldirildi. Gollandiyaliklar orasida islom va uning nufuzidan qo'rqish kuchli edi [islomofobiya]. Indoneziyaning Jepara, Semarang, Surabaya, Rembang, Demak va Tegal qismlarida 869 nafar Yevropa qo'shinlari joylashtirildi. Birinchi Yava vorislik urushi. 1708-yilda Amangkurat III va nihoyat VOC bilan muzokara olib borishga rozilik bildirdi. Biroq XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida VOC moliyaviy inqirozni boshidan kechirayotgan edi. Natijada mustamlaka hududidan olinadigan daromadlarni ko'paytirish siyosatini olib bordi. Bu o'z-o'zidan norozilik va qarshilik harakatining kuchayib borishiga olib keldi. Islom faktori kuchayib bordi.

**12-mavzu. Yava davlati va VOC munosabatlari (1745-1792).**

Yava orolida gollandiyaliklar nufuzi ortib bordi. Ayni vaqtda VOC ham o'z mavqeini mustahkamlab borgan. Mahalliy aholi orasida qarshilik harakati ommaviy tus oldi. 1755-yilda Giyanti kelishuvi imzolanib, unga ko'ra, VOC Mangkubumini Sulton Hamengkubuvana I deb tan olib, Markaziy Yava orolining yarmining hukmdori deb e'lon qildi. *Angger-Ageng* (Buyuk Qonun kodeksi, 1771). Angger-Arubiru (Tinchlikni buzishga doir qonun, 1773). 1789-yilda Surakartadagi VOC rezidenti Andries Hartsink (1788-1790) mahalliy yava uslubida kiyingan kishilarning yashirin tungi majlisini fosh qiladi. 1790-yildagi harbiy harakatlar. Wulang Reh.

**13-mavzu. Mustamlaka davlatning tashkil topishi: Indoneziyada ijtimoiy-siyosiy ahvol (1792-1830).**

XVIII asrning oxirgi o'nyilligida ikki Yava qirolligi – Surakarta va Yogyakarta juda katta muammolar qarshisida turar edi. Har ikki qirollik ham ichki ziddiyatlar girdobida edi. Boshqa tarafdan VOC niderlandlar qurshovida qolib tobora zaiflashib bormoqda edi, bu holat, ayniqsa, to'rtinchi ingliz urushi (1780-1784) davrida jiddiy ko'rinish oldi. Portugaliya mustamlaka tizimining zaiflashib borishi bilan Fransiyaning bu hududdagi qiziqishlari amaliy tus olib bora boshladi. "Mangkunegaran legioni". Yava urushi (1825-1830), Aseh urushi (1873-1874). Napoleonning Yevropadagi harbiy harakatlarining Indoneziyaga ta'siri. 1825-yilda Tegalreja yaqinida yangi yo'l qurilishi. 1827-yilda turli yuqumli kasalliklar – vabo, o'lat va ichburug' kabilar tarqalib, vaziyatni og'irlashtirdi. XIX asr ikkinchi yarmida Indoneziya mustaqillikni saqlab qolishga bo'lgan oxirgi imkoniyatini boy berdi.

**14-mavzu. Indoneziyaning Yava orolida ijtimoiy-siyosiy vaziyat (1830-1900).**

Indoneziyaning to'liq mustamlaka tuzumi ostiga o'tishi. Mintaqaning daromad olish va mehnat kuchi manbaiga aylanib, kofe plantatsiyalari maydonlari kengayib, qahva yetishtirish muhim o'rin tuta bordi. Shuningdek, Pekalongan, Tegal, Jepara, Madiun, Pasuruan va Surabayada shakar yetishtirishga talab oshdi. Import hajmining oshishi bilan Amsterdam eng yirik tropik mahsulotlar, shakar va kofe bozori mavqeini egalladi. *Cultuurstelsel.*

1870-yil yer to'g'risidagi qonun. 1880-yillarda inqiroz sodir bo'ldi. Madaniy hayotda buddaviylik, islom va xristianlikning ta'siri o'sdi.

**15-mavzu. Indoneziyaga qo'shni orollar (1800-1910).**

Tahminan 1910-yilga kelib, hozirgi Indoneziya Respublikasi hududi to'liq gollandlar qo'l ostiga o'tib bo'lgan edi. Madura orollari. 1814-yilgi Britaniyaning Buleleng va Karangasem qirollari bilan urushi. Balida ichki hokimiyat uchun kurashlar. 1853-yilda Bulelengda qo'zg'olonlar. Golland general-gubernatori V.Rozbum [W.Rooseboom] (1898-1904) faoliyati. Sharqiy Timorda portugallar nazoratining saqlanib qolishi. Tomas Matulesia (shuningdek Pattimura nomi bilan ham ma'lum, 1783-1817) yetakchiligidagi Saparuadagi isyonlar. Kalimantan orolida Jeyms Bruk [James Brooke] (1803-1863) rahbarligidagi ingliz intervensiyasi. 1906-yilda Gollandiyaga qarshi qaratilgan qarshilik harakati yakuniga yetdi.

**MODUL II. (Yangi va eng yangi davr)**

**1-mavzu. Yagona Indoneziya g'oyasining paydo bo'lishi (1900-1942). Yangi kolonial davr.**

*"Max Havelaar"* (1860) asarida golland mustamlaka tuzumining tasvirlanishi. "Liberal" davr – 1870 – 1900-yillar. 1899-yilda huquqshunos S.T. van Deventerning "de Gids" jurnalida nashr etilgan "Een eereschuld" (*"A debt of Honour"*) deb nomlangan maqolasining mazmuni. Aleksandr V.F. Idenburg faoliyati. Temiryo'llar liniyasining qurilishi va ularning mustamlakalardan mahsulot va boyliklarni olib chiqib ketishdagi ahamiyati. Aholining etnik tarkibidagi o'zgarishlar. Demografik holat. Migratsiya. OSVIA va STOVIA. Van Heutz [van Heutsz]ning gubernatorlik davri (1904-1908) – ta'lim islohoti. Koloniyalar bo'yicha vazirlik faoliyati.

**2-mavzu. Indoneziyada milliy tiklanishga qaratilgan ilk qadamlar (1900-1927).**

XX asr boshida Indoneziyada ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy ahvol. Gazeta va jurnallar faoliyati va ularda mamlakat ahvolining aks ettirilishi. Doktor Wahidin Soedirohoesodo (1857-1917) faoliyati. Budi Utomo tashkiloti: 1908-yilda Yagyakartada birinchi kongress. Turli yig'ilish va harakatlarning siyosiy mazmun kasb etib, siyosiy partiya maqomini egallab borishi. Surabaya H.O. Tjokroaminoto (1882-1934) faoliyati. Sarekat Islam. Elmu nabi Adam. Imomlarning mavqei. Shaikh Muhammad Tahir bin Jalaluddin al-Azhari (1869-1957). Ayollarning mavqei va ta'limi. Persyarikatan Ulama (Diniy olimlar uyushmasi). Birinchi jahon urushi va uning Indoneziyaga ta'siri. 1919-yilda Tolitoli (Shimoliy Sulavesi)da golland amaldorining o'ldirilishi. 1924-yilda Turkiya tomonidan xalifalikning tugatilishi va buning Indoneziya mafkuraviy-siyosiy hayotiga ta'siri. 1927-yil 1-yanvar voqealari.



**15-mavzu. Eng yangi davrda Indoneziya.**

Ta'lim tizimi muvaffaqiyatlari. Sanoatning eng yangi tarmoqlarida rivojlanish tempi. Xalqaro aloqalarda – iqtisodiy, siyosiy va mudofaaviy yo'nalishlar. Xalqaro tashkilotlar faoliyatida Indoneziyaning o'rni. Diniy konfessiyalar faoliyati. Madaniy hayotdagi o'zgarishlar. Zamonaviy arxitektura.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**MODUL I. (Qadimgi va o'rta asrlar)**

1. Indoneziyaning jahon tarixida tutgan o'rni.
2. Mil. av. I-ming yillik – XI asrlarda Janubi-Sharqiy Osiyodagi etnomadaniy jarayonlar.
3. Indoneziya islomgacha bo'lgan davrda siyosiy bosh-boshdoqlik.
4. Indoneziyaga Islom dinining kirib kelishi va tarqalishi.
5. Mustamlaka davridan oldingi Indoneziya: o'zaro siyosiy kurashlar.
6. Yevropaliklarning Indoneziyaga kirib kelishi.
7. Indoneziyada yangi davlatlarning paydo bo'lishi.
8. XV asrning birinchi yarmida Indoneziya davlatidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.
9. Indoneziyadagi davlatlardan biri bo'lgan Yava davlat boshqaruvi.
10. Indoneziyaning Yava, Madura davlatlari va VOC aloqalari.
11. Yavada Portugal mustamlaka rejimining o'rnatilishi.
12. Indoneziyaning Yava davlatida siyosiy-ijtimoiy ahvol (1792-1830).
13. Indoneziyaning Yava davlatida siyosiy-ijtimoiy ahvol (1830-1900).
14. Indoneziyaga qo'shni orollardagi ijtimoiy-siyosiy hayot.
15. Indoneziyada yangi kolonial davr.

**MODUL II. (Yangi va eng yangi davr)**

1. Yagona Indoneziya g'oyasining paydo bo'lishi (1900-1942). Yangi kolonial davr .
2. Indoneziyada milliy tiklanishga qaratilgan ilk qadamlar (1900-1927).
3. Indoneziyada mustamlaka rejimi: repressiya va iqtisodiy inqiroz (1927-1942)
4. Mustamlakachilik tuzumining yemirilishi (1942-1950).
5. Indoneziyada inqilobiy harakatlar va ularning oqibatlari (1945-1950).
6. Mustaqil Indoneziya Respublikasining tashkil topishi.
7. Indoneziyada mustaqillikni mustahkamlash uchun kurash (1923-1933).
8. Indoneziya Respublikasi 1933 – 1945 yillarda..
9. Indoneziya ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda: inqilobiy harakatlar (1945-1960 yy.).
10. Mustaqil Indoneziya. Demokratik tajriba (1950-1957).
11. Indoneziyada demokratik boshqaruvning o'rnatilishi (1957-1965).

Kartavidjaja (1911-1963)ning bosh vazirlik davri – ahvolni o'nglashga qaratilgan qarashlarning ilgari surilishi. Muktamar Ulama Se-Indonesia – Islom olimlari Indoneziya Kongressi (1957). Mamlakat turli hududlari o'rtasidagi davlatning siyosiy qiyofasi borasida raqobat. 1959-yilda Konstitutsiyani o'zgartirishga doir saylovlar. Ayollar harakati. Giper-inflatsiya. Qo'shni davlatlar bilan munosabatlar. 1965-yil sentabr-oktabrdagi davlat to'ntarishiga urinish.

**12-mavzu. Indoneziyada "yangi tartib"ning o'rnatilishi (1965-1988).**

1960-yillarning oxirida Indoneziyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi. Ishchi va kasaba uyushmalari harakatining kuchayishi. Diniy partiyalarning faollashuvi. Mamlakatni islomlashitirishga urinish. Aholi sonining ko'payishi. Ayollar huquqlari uchun kurash. Ayollar savodsizligini tugatishga qaratilgan islohotlar. General Suharto obro'sining oshib borishi. 1965-yil oktabridan boshlab "demokratiya boshqaruvi" inqirozi boshlandi. Yoshlar harakati. Repressiyaning boshlanishi – Gestapu. 1966-yildagi kabinet almashuvi. 1965-yilda Mahmillub: Mahkamah Militer Luar Biasa – o'ziga xos harbiy sudlar tashkil etildi. 1968-yilda Suharto prezidentlikka saylandi. Besh yillik rivojlanish dasturlari. Megapolislarning paydo bo'lishi – Jakarta. Eron-Iroq urushining Indoneziyaga ta'siri. Pertamina debacle (1975-yil). 1977-yildagi saylovlar – PDI ustunligi. Korrupsiya bilan bog'liq muammolar. Suharto rejimiga qarshi talabalar isyonlari. ASEAN. ABRI. 1980-yil – "Ellik (kishining) petitsiyasi". General-mayor Prabovo Subianto shaxsi va uning Indoneziya tarixida tutgan o'rni. 1987-yildagi saylovlar.

**13-mavzu. Indoneziyada "yangi tartib"ning muammolari, inqirozi va barham topishi (1989-1998).**

Sovuq urushning tugashi va uning Indoneziya uchun oqibatlari. Tiananmen maydonidagi talabalar namoyishlari. Mamlakatning turli qismlarida qurolli chiqishlarning kuchayib ketishi: siyosiy inqirozning kuchayishi. Harbiy boshqaruv ostiga o'tgan "qizil" hududlar muammosi. Bo'linishdagi diniy faktorning o'tkirligi. Habibiy shaxsi. 1992-yilgi saylovlar. Doimiy harbiy qo'shinlar tarkibining kengaytirilishi. Chet investitsiyalarining ko'payib borishi. Tempo. 1997-yilgi Osiyo iqtisodiy inqirozi. 1998-yil may voqealari – Habibiyning prezidentlik davri boshlanishi.

**14-mavzu. Suharto boshqaruvi tugatilgandan keyingi Indoneziya.**

Sanoatning yangi tarmoqlari ishga tushirildi. Inflatsiyani to'xtatish hamda milliy pul birligi – rupiyani mustahkamlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Diniy tolerantlik kayfiyati. Sharqiy Timor bilan bog'liq masalalar. 1999-yilda mamlakatda 48 ta siyosiy partiya rasman ro'yxatga olingan edi. 1999-yilgi saylovlar. Abdurrahmon Vahid prezidentligi davri. Ijtimoiy-siyosiy mo'tadil vaziyatning o'rnatilishi.



**3-mavzu. Indoneziyada mustamlaka rejimi: repressiya va iqtisodiy inqiroz (1927-1942)**

Sukarno. Bandung konferensiyasi. Partai Nasional Indonesia (Indoneziya milliy partiyasi). Partai Sarekat Islam Indonesia. Mohammad Hatta (1902-1980). Sutan Sjahrir (1909-1966). General-gubernator Andrez S.D. de Gref [Andries C.D. de Graeff] (1926-1931) davridagi repressiya. 1928-yilda Indoneziya ishchilar uyushmasi – Sarekat Kaum Buruh Indonesia tashkil etildi. Indonez tili (*Bahasa Indonesia*) va uning mavqei. 1928-yil oktabrida Indoneziya birligi rasman Yoshlar Kongressi bilan birlashdi. Birinchi jahon urushining boshlanishi: Yaponiya-Germaniya-Italiya o'rtasida Uchlar ittifoqining tuzilishi (1940). 1941-yil iyul oyida Yaponiya qo'shinlari Hindixitoyda mustahkamlanib oldi.

**4-mavzu. Mustamlakachilik tuzumining yemirilishi (1942-1950).**

Uch yarim yillik Yaponiya okkupatsiya davri. Golland va ingliz tilining ta'qiqlanishi. Islom va arab tiliga munosabat. Mohammad Dovud Boroiy [Mohammed Daud Beureu'eh (1899-1987)] rahbarligidagi PUSA (Persatuan Ulama-ulama Seluruh Aceh, Barcha Aseh ulamolari uyushmasi) faoliyati. Okkupatsiya rejimiga qarshi harakatlar. Indoneziyani mustaqillikka tayyorlash tadqiqot qo'mitasi (Badan Penyelidik Usaha Persiapan Kemerdekaan Indonesia), 1945-yil. Indoneziya mustaqillik mafkurasi asoslari: Xudoga ishonish, milliylik, insonparvarlik, ijtimoiy adolat va demokratiya. 1945-yil 17-avgust kuni Sukarno mustaqillik deklaratsiyasini o'qib eshittirdi.

**5-mavzu. Indoneziyada inqilobiy harakatlar va ularning oqibatlari (1945-1950).**

Indoneziyadagi milliy ozodlik harakatiga qarshi kurashda Antanta mamlakatlari va ittifoqchilarining vaqtinchalik yutuqlari. Istanbulning ittifoqchi kuchlar tomonidan bosib olinishi. Sevr shartnomasi Indoneziyaning bo'linishi to'g'risidagi Versal "tinchlik tizimi" ning ajralmas qismi sifatida. Indoneziyada xalq harakatining yangidan ko'tarilishi. Muntazam armiya tuzish. London konferensiyasi va uning muvaffaqiyatsizligi. Moskva konferensiyasi.

Sovet-Indoneziya do'stlik shartnomasining imzolanishi (1921 yil 16 mart).

Sokariyada yunon bosqinchilari ustidan qozonilgan g'alaba (1921 yil sentyabr) mustaqillik uchun kurashda hal qiluvchi burilish nuqtasi bo'ldi. Indoneziya Kommunistik partiyasining qonuniylashtirilishi va uning Kamolchilar tomonidan mag'lubiyatga uchratilishi. Yunon armiyasining turk qo'shinlari tomonidan mag'lubiyatga uchratilishi. Kichik Osiyoning Yunon bosqinchilaridan ozod qilinishi. Indoneziyaning bo'linishi bo'yicha Antanta siyosatining barbod bo'lishi.

**6-mavzu. Mustaqil Indoneziya Respublikasining tashkil topishi.**

Indoneziya suverenitetining mustahkamlanishi. Mudan sulhi (1922). Turk burjuaziyasi boshqaruvining mustahkamlanishi. 1921 yil Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unung eng muhim hujjatlari. Sultonlikning tugatilishi. Lozanna tinchlik konferensiyasi. Kapitulyatsiyaning tugatilishi. Indoneziyaning siyosiy mustaqillikka erishishi. Indoneziyaning respublika deb e'lon qilinishi (1923 yil 29 oktyabr). Xalifalikning tugatilishi. Milliy ozodlik harakatining natijalari.

**7-mavzu. Indoneziyada mustaqillikni mustahkamlash uchun kurash (1923-1933).**

Indoneziya Respublikasining suverenitetini mustahkamlash davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari. Izmir iqtisodiy Kongressining 1923 yildagi qarorlari. Indoneziya Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi (1924) va uning mohiyati.

Kamolchilarga qarshi oppozitsiyaning faollashuvi. Progressiv Respublika partiyasining shakllanishi. Uning respublikaga qarshi faoliyati. Ichki tuzilmadagi o'zgarishlar. Ta'lim, kundalik hayot va madaniyat sohasidagi islohotlar.

Indoneziya jahon iqtisodiy inqirozi davrida (1929-1933). Jahon iqtisodiy inqirozining Indoneziyadagi ichki iqtisodiy va siyosiy vaziyatga ta'siri. Indoneziya hukumatining xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun. Bojxona islohoti. Qishloq xo'jaligi kooperativlari va yer solig'i to'g'risidagi qonun. Indoneziya valyutasini himoya qilish to'g'risidagi qonun.

Respublika Xalq partiyasining yangi dasturini qabul qilish (1931), M.K. Otaturkning oltita prinsipi. Xorijiy kapital mavqeining pasayishi. Yangi Usmonli qarz shartnomasi (1933). Xorijiy korxonalar va banklarni milliylashtirish. Ma'muriy islohotlar. Indoneziyada ikki partiyali tizimni yaratishga urinish. Liberal respublikachilar partiyasining tashkil topishi. Uning dasturi. Ishchilarning siyosiy faolligini kuchaytirish. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarini qabul qilish uchun kurash.

**8-mavzu. Indoneziya Respublikasi 1933 – 1945 yillarda.**

Ikkinchi Jahon urushi arafasida Indoneziyadagi ichki siyosiy inqiroz. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining birinchi besh yillik rejasini qabul qilish (1934). Indoneziya hukumatining agrar siyosati. Qishloqda kapitalizmning rivojlanishi. Davlat sektorini kuchaytirish. Ikkinchi besh yillik rejani qabul qilish atrofidagi siyosiy kurash. Xalq respublika partiyasining IV qurultoyi (1935). Partiyaning yangi dasturini qabul qilish. Indoneziya Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarishlar. Indoneziya siyosiy hayotida millatchilikning kuchayishi. "Turar-joy to'g'risida" (1934), "Indoneziya va chet el fuqarolarining harakati to'g'risida" (1938), "Familiyalar to'g'risida"gi (1934) qonunlar. Mayda millatlar kurashining kuchayishi. Ishchilar harakatining



ko'tarilishi. Mehnat to'g'risidagi qonun (1936) va Jamiyatlar to'g'risidagi qonunning (1938) qabul qilinishi. M. Kamol Otaturkning o'limi. Indoneziya hukumati siyosatidagi o'nglar tendensiyasining kuchayishi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyingi Indoneziya hukumatining harbiy-siyosiy choralari. Indoneziya armiyasini kuchaytirish. Siyosiy va iqtisodiy kuchlarning davlat qo'lida to'planishi. "Milliy himoya to'g'risida"gi qonun (1940). "Mamlakatning barcha sanoat korxonalarini nazorat qilish to'g'risida" gi farmon (1943). Indoneziyaning harbiy tayyorgarligini kuchaytirish. Fashistlar Germaniyasi bilan do'stlik va hujum qilmaslik paktining imzolanishi (1942). Gitler Germaniyasining SSSRga hujumi va Indoneziyaning betarafligini e'lon qilishi. Germaniyaning Indoneziyadagi mavqeini mustahkamlash. Indoneziya hukumatining SSSR bilan urushga tayyorgarlik ko'rish choralari. Panturkizm va boshqa reaksion tashkilotlarning faolligi. 1945 yilda Indoneziyaning Germaniya va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qilishi. Ikkinchi jahon urushining Indoneziya uchun oqibatlari.

**9-mavzu. Indoneziya ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda: inqilobiy harakatlar (1945-1960 yy.).**

Indoneziyada ikkinchi jahon urushi yakuni arafasida milliy istiqlolchilik harakati kuchayib, ham ingliz-golland mustamlakachiligiga qarshi, ham yapon okkupatsiya rejimiga qarshi kurashlar avj oldi. 1945-yilda Jakartada Respublika hukumatining tashkil etilishi. Birinchi Prezident – Sukarno(1945-1967); birinchi vitse-Prezident – Hatta (1945-1956). Komite Nasional Indonesia Pusat (KNIP). Medan Merdeka (Mustaqilik maydoni). Golland mustamlakachilik tizimining davom etishi. Sulton Hamengkubuvana IX (hukmronlik yillari: 1939-1988). Mustaqil Indoneziya davlatining paydo bo'lishida tashqi kuchlar: AQSH, SSSR va boshqa G'arb davlatlarining o'rni. Indoneziya qo'shma shtatlarining tuzilishi – 1950-yilning 17-avgust sanasi. Yangi poytaxt – Jakarta.

**10-mavzu. Mustaqil Indoneziya. Demokratik tajriba (1950-1957).**

Indoneziyada 1957-yilgacha demokratik rejim hukm surdi: korrupsiya, ijtimoiy adolatsizlik, iqtsidoiy muammolar va hk. Aholi sonining o'sishi. Ta'lim tizimidagi keskin ijobiy o'zgarishlar. Yangi diniy-siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi. SOBSI (Sentral Organisasi Buruh Seluruh Indonesia, Barcha Indoneziya ishchilari tashkiloti) faoliyati. Ambones isyoni (1950-yil noyabri). Sukarnoning harbiy siyosati. Harbiy boshqaruv to'g'risidagi qonun. Mamlakatda harbiylarning nufuzi oshishi.

**11-mavzu. Indoneziyada demokratik boshqaruvning o'rnatilishi (1957-1965).**

1957-yilgi siyosiy inqiroz. Sukarno – "demokratik boshqaruv" verse "diktator". Iqtisodiy inqiroz. Ommaviy harbiylashtirish. Siyosatchi Djuanda